

## 17. Ko'p xonali sonlarni qo'shish



Yondosh mavzu:  
Jizzax viloyati

Xona qo'shiluvchilari yig'indisi,  
sinflar va xonalar,  
harfiy ifodalar



- Archa o'rmonlarini muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan qo'riqxonalar qanday nomlanadi? Amallarning bajarilish tartibiga ko'ra so'zni toping.

$$2835 + (1657 + 7860) + (845 - 39 \cdot 7)$$

M 572

Z 9 517

I 12 352

U 2 570

O 273

N 12 924



- Zomin bog'ining daraxtsiz yerlari 7 327 hektarni, o'rmonzorlari esa 9 456 hektarni tashkil etadi. Zomin bog'i necha hektarni egallaydi?



- 10 000 m<sup>2</sup> ga teng maydon bir hektar deb ataladi.

$$1 \text{ ha} = 10 000 \text{ m}^2$$

4 hektarda necha kvadrat metr bor? 7 hektarda-chi?  
20 hektarda-chi?



- Sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi ko'rinishida yozing.  
356 894      280 300      507 130 904      600 000 003

## 17. Ko‘p xonali sonlarni qo‘shish



5. Masalalarga mos ifodalar tuzing.

- a) Zominga sayyoohlarni  $n$  ta avtobusda va  $m$  ta yo‘nalishli taksida olib kelishdi. Har bir avtobusda 35 nafardan, taksida esa 11 nafardan yo‘lovchi keldi. Hammasi bo‘lib necha sayyoh kelgan?
- b) Sanatoriya  $a$  ta ikki o‘rinli va  $b$  ta to‘rt o‘rinli xonalar bor. Sanatoriya jami necha kishi joylashishi mumkin?
- d) Sanatoriya oshxonasida  $x$  ta 6 o‘rinli va  $y$  ta 4 o‘rinli stol bor. Oshxonada bir vaqtning o‘zida necha kishi ovqatlanishi mumkin? Bu ifodalarda qanday umumiylilik bor va ular nimasi bilan farqlanadi?



6. Bo‘sh joylarni to‘ldiring.

$$4 \text{ m}^2 13 \text{ dm}^2 = \dots \text{ dm}^2$$

$$6 \text{ dm}^2 87 \text{ cm}^2 = \dots \text{ cm}^2$$

$$5 \text{ cm}^2 28 \text{ mm}^2 = \dots \text{ mm}^2$$


$$289 \text{ dm}^2 = \dots \text{ m}^2 \dots \text{ dm}^2$$

$$967 \text{ cm}^2 = \dots \text{ dm}^2 \dots \text{ cm}^2$$

$$345 \text{ mm}^2 = \dots \text{ cm}^2 \dots \text{ mm}^2$$



7. Bu harflarning yuzalarini taqqoslang. Qaysi harfga ko‘proq qog‘oz ketadi?



8. Avtomobil raqami uch xonali sondan iborat. Azim faqat raqamlarining yig‘indisi 7 ga teng bo‘lgan sonni omadli raqam deb hisoblaydi. Ular qaysi raqamlar bo‘lishi mumkin?

## 17. Ko‘p xonali sonlarni qo‘shish



9. Yozing.

a) Sonlarni raqamlar bilan yozing.

8 mln 672 ming 520

72 mln 53 ming 700

203 mln 4 ming 9

500 mln 9

b) Millionlari 734 ta, minglari millionlaridan 108 ta ko‘p, birliklari esa minglаридан 223 ta kam bo‘lgan sonni raqamlar bilan yozing.

d) O‘nliklar xonasida 6 raqami, yuzliklar xonasida o‘nliklar xonasidagi raqamdan 3 marta kichik, birliklar xonasida esa sonning dastlabki ikkita raqami yig‘indisiga teng raqam bo‘lgan uch xonali sonni raqamlar bilan yozing.



10. Ushbu sonlarni raqamlar bilan yozing va ularni xona qo‘shiluvchilari yig‘indisi ko‘rinishida ifodalang.

a) Yigirma uch million to‘rt yuz olti ming ellik yetti.

b) Besh yuz uch million sakson bir ming bir yuz o‘ttiz.

c) Olti million uch ming yetti.

d) Bir yuz yigirma million.



11. Misolni amallarning bajarilish tartibiga ko‘ra yeching.

Bu tog‘da yana bir qo‘riqxona bo‘lib, u Qizil kitobga kiritilgan kamyob tur – Seversov qo‘yini saqlash maqsadida tashkil etilgan. Bu qaysi qo‘riqxona?

$$7\ 352 + (62 \cdot 7 + 92 \cdot 9) + (981 - 297)$$

O 684

U 828

T 8 614

A 9 298

N 434

P 9 128

U 3 145

R 1 262

G 7 409

